forward a little, sitting straight, not placing the head too low, not leaning with the chest against the edges of the table, sitting with the legs bent at a right or impenetrable angle.

Moving order. Participation in daily walks. Active participation in action games with toys and sports equipment in physical exercises.

Action games.

Walking and running games. ", "To the guest of the doll-larnies", "hatching from the sidewalk, the stick", "chase me", among others.

Crawling games. "Crawls to the wind", "Monkeys", "falls to the gate".

Gnaw and hook. "Hang the ball in the goal, "My White Rabbit", "jump out of a ditch".

Conditioning and wellness

Wellness work. During morning badantarbia, get children used to walking, jumping, and actively performing exercises for the arm and leg torso.

To encourage adherence to the rules of play learned in physical education during the action games of travel time, to cultivate the skills of performing roles in different groups. Cycling according to the season, roller skating, sleigh flaying, studying some methods of National Wrestling

### Bibliography:

1. Karimov I. A. "High spirituality is an invincible force". T.: "Spirituality" 2008.
2. Regulation "on preschool education" in the Republic of Uzbekistan. T.: 2000. "National Training Program". Tashkent, 1997.
3. Avesto.Historical-literary monument. A. Solid translation-T.: Publishing house "east" - press concern. 2001.
4. Usmankhojayev S., Aliyev M.B., Sagdiyev H.H., Turdiyev F.K., Akramov J.A. Theory and methodology of training in children's and adolescent sports. T., "ILM ZIYO". 2006.



## BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QUVCHILARIDA ONA TILI KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Axmadjonova Umidaxon Zuxriddinovna

Farg‘ona tumani 33-maktab  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi  
e-mail:ahmadjonova.u.@.mail.ru

**Annotatsiya:** maqolada boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarida ona tili ko‘nikmalarini shakllantirish, til va nutqni boyitishda e’tibor qaratadigan masalalar yoritilgan

**Kalit so‘zlar:** til, til ko‘nikmasi, so‘z, boshlang‘ich ta’lim, til va nutq.

Tilning rivojlanishi, ayrim so‘zlarning ma’nolari haqidagi bilimni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ot, sifat, son, fe’lni o‘rganish jarayonida asta-sekin bilib oladilar. Bu o‘rinda «So‘zning tarkibi» bo‘limi katta imkoniyatga ega. O‘quvchilar bu bo‘lim materiallarini o‘rganish jarayonida tilimizning yangi so‘zlar bilan boyib borishi haqidagi muhim manbalar bilan, so‘z yasalishi bilan tanishadilar. Ma’lumki, ko‘pgina yangi so‘zlar tilda mavjud bo‘lgan so‘zlar zaminida yaratiladi, tilda bor qoliplar kabi yasaladi.

Boshlang‘ich sinflarda tilning rivojlanishi haqidagi masala maxsus o‘rganilmaydi. Tilga jamiyatning rivojlanishi bilan bog‘liq holda rivojlanadigan hodisa sifatida ilmiy qarashga zamin yaratish muhim ahamiyatga ega. Tilning leksik tomoni boshqalariga nisbatan harakatchan, tez rivojlanadigan bo‘lgani uchun, til leksikasi misolida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari saviyasiga mos ravishda jamiyatning rivojlanishi bilan bog‘liq holda tilning ham rivojlanishi tushuntiriladi. Tilning leksik tarkibida yuz berayotgan o‘zgarishlar yuzasidan o‘qituvchi va o‘quvchilarning kuzatishlari bolalarda dunyoni bilish haqidagi tasavvurini shakllantirishga mos material beradi.

Ona tilini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish masalasini hal qilishda maktabda ona tilini o‘rgatishga asos bo‘ladigan material alohida qimmatga ega. Materialning haqiqiy tomoni, uning g‘oyaviy yo‘nalishi va badiiy ifodaliligi o‘quvchilarning fikrlash faoliyatiga, his-tuyg‘ulariga ta’sir etadi, atrof- muhit haqidagi bilimlarini kengaytiradi, tilga va uni yaratgan xalqqa qiziqishini tarbiyalaydi, o‘quvchilarning umumiylara qarashga shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Keyigi yillarda maktab ona tili darsliklari va o‘qituvchilar uchun nashr qilingan qo‘llanmalar materiali mazmuniga qo‘yilgan talablar anchagina ortdi. Materialning asosiy mezoni matn va alohida gaplarning bilimni boyituvchi qimmati, leksik- uslubiy aniqligi, mavzu jihatdan xilma-xilligi, hayotning turli tomonlari bilan bog‘lanishi, matnlarning g‘oyaviy-mavzuviy yo‘naltirilganligi, kichik yoshdagilari o‘quvchilarga mosligidir.

Shunday qilib, tilni o‘rganish jarayonida kichik yoshdagilari o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga o‘qituvchining metodologik yondashuvi, o‘quvchilar o‘zlashtiradigan ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanib boruvchi til haqidagi bilimlar majmuasi, o‘quvchilar o‘rganib oladigan bilish usuli, tilni o‘rganishga asos bo‘ladigan materialning bilim berishdagi, g‘oyaviy-siyosiy va badiiy qimmati hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatar ekan.

O‘quvchilarda dunyoqarash asoslarini shakllantirish ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u maktabda va maktabdan tashqarida olib boriladigan o‘quv- tarbiyaviy ishlarning barcha tizimida hal qilinadi.

Maktabda tildan nazariy bilimni o‘rganishdan maqsad fikrni og‘zaki va yozma tarzda grammatic to‘g‘ri va uslubiy aniq ifodalash uchun undan ongli foydalanish hisoblanadi. Biroq nazariy bilimni amalda qo‘llashni esa maqsadga muvofiq va muntazam o‘rgatib borish talab etiladi.

Mashqlar tizimi tushunchani o‘zlashtirish bosqichiga va uning xususiyatiga mos ravishda mashq turini tanlash, uning murakkablasha borishini va o‘quvchilar mustaqilligi o‘sib borishini hisobga olgan holda mashqlarni bajarish izchilligini aniqlashni ko‘zda tutadi. Bu tizim mashqlarning o‘zaro bog‘lanishiga asoslangan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. U.Masharipova va b.q. Ona tili “1-sinf o‘qituvchilari uchun ilg‘or pedagogik va axborot kommunikasiya texnologiyalarini amaliyatga joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma T-2017.
2. G‘afforova T va b.q “Ona tili” darsligi 1-sinf T-2019.
3. Qosimova K va b.q “Ona tili” darsligi 2-sinf T-2018.
4. Fuzailov S va b.q “Ona tili” darsligi 3-sinf T-2019.



## TABIATSHUNOSLIK DARSLARIDA O'QUVCHILARGA QUYOSH SISTEMASI HAQIDA MA'LUMOT BERISH

**Hamroyeva Vohida Ismatovna**

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani

4-makab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

(+998919753239)

**Annotatsiya:** Yer cheksiz koinotdagi behisob kosmik jismlar-yulduzlar, sayyoralar (planetalar), ulaming yo'ldoshlari, kichik planetalar (asteroidlar) kometalar va boshqalaming biridir.

**Kalit so`zlar:** Sayyora, galaktika, planeta, yer shari, mars, yupiter, venera, Saturn, uran

Yer ham boshqa planetalar kabi Quyosh atrofida aylanadi hamda Quyosh sistemasi tarkibiga kiradi. Quyosh esa fazoda son-sanoqsiz yulduzlaming biri bo'lib, yulduzlar to'plami hisoblangan Galaktika (sonion yo'li) jismlaridan iborat.

Galaktika - Quyosh sistemasidan va 150 mlrd yulduz hamda yulduzlararo fazodan iborat sistemadir.

Yulduzlar - o'zidan yorug'lik va issiqlik chiqarib turadigan qizigan jismlardir. Ular hajmi, massasi va zichligiga ko'ra bir xil emas. Ba'zi yulduzlar (qizil yulduzlar) hajmiga ko'ra quyoshdan milliard marta katta bo'lib, gigant yulduzlar deyiladi. Mitti yulduzlar esa quyoshdan kichik, rangi oq, u qadar issiq emas. Yulduzlaming yuzasidagi harorat  $3000^{\circ}\text{C}$  dan  $30000^{\circ}\text{C}$  gacha yetishi mumkin. Ulaming tarkibida vodorod va geliy ko'p bo'ladi. Reaksiya tufayli vodorod geliyga aylanadi, buning natijasida energiya va nur hosil bo'ladi. Galaktikaning deametri taxminan 100000 yomg'lik yiliga teng. Galaktika sistemasiga kimychi yulduzlar to'plamining shakli uzoqdan qaraganda yasmiqqa o'xshagan bo'lib, ikki tomoni qabariqdir. Yulduzlar yasmiq markazida juda zieg joylashib, gallaktika yadrosini hosil qiladi.

Galaktikadagi hamma yulduzlar galaktika markazidan o'tadigan va galaktika tekisligiga tik bo'lgan o'q atrofida aylanadi. Quyosh va galaktika markazida 25 ming yomg'lik yili baravarida uzoqlikka joylashib, sekundiga taxminan 250 km tezlik bilan harakat qiladi va 200 mln yomg'lik yilda galaktika atrofini bir marta aylanib chiqadi. Buni galaktika yili deb ataladi. Galaktikada Quyosh va boshqa yulduzlardan tashqari yulduzlararo fazoda gazlaming bulut kabi to'plamlaridan tashkil topgan juda siyrak tumanliklar mavjud. Olamda bir-biridan o'n va yuz milliardcha yorugiik yiliga barobar boigan masofa orqali ajralib turadigan ko'pdan ko'p galaktikalar mavjud. Galaktikalar juda uzoq joylashgan. Masalan, janubiy yarim shardagi Magellan galaktikasining uzoqligi 80 ming yorugiik yiliga teng. Bizdan eng uzoqda boigan galaktikalarning masofasi 1 milliard yorugiik yiliga teng. Yulduzlar ichida Yerga eng yaqin Alfa Tsentrav boiib, uning nuri bizga 4 yil 3 oyda yetib keladi. Lekin shuni esdan chiqarmaslik kerakki, metagalaktika - butun olam degan so'z emas. Chunki olam cheksiz boiib u o'z navbatida sonsanoqsiz metagalaktikalar to'plamidan tashkil topgan. Galaktika kimyoviy tarkibiga ko'ra asosan vodorod (86,7%), geliy (13.2%) dan iborat. Qolgan barcha elementlar (uglerod, azot, aluminiy, ftor, litiy, berilliyl, magniy, temir va bosh) uning 0,1 massasini tashkil etadi. Galaktikaning vujudga kelishi haqida turli gepotezalar mavjud. Ba'zi gepotezalarga ko'ra galaktika asosan vodoroddan iborat gaz bulutlaridan hosil qilingan deb taxmin qilinadi.

Xulosa: Boshang'ich sinflarda tabiatshunoslik darslarini tashkil etishda qiziqarli sayohatlar, ekskursiyalar tashkil etish darsning yanada qiziqarli va samarali bo'lishiga, o'quvchilarning o'zlashtirishlari yanada yaxshi bo'lishiga yordam beradi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. D.Sharipova, D.P.Xodiyeva, M.K.Shirinov “Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi”
2. Internet ma'lumotlari.



## SHAXSNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Jumatova Mohira Qurbanbayevna**

Gurlan tumani 42-son AFCHO’IM amaliyotchi psixolog

Telefon: +998 (97) 511 12 90

m.jumatova\_42@inbox.uz

**Xalmuratova Dilfuza Maxmudjonovna**

Gurlan tumani 41-son maktab amaliyotchi psixolog

Telefon: +998 (90) 719 96 35

x.dilfuza\_41@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxsnинг individual psixologik xususiyatlari ya’ni sezgi, idrok, xotira, tasavvur, tafakkur, hissiyat, temperament va ularning turlari haqida ilmiy ma’lumotlar yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** Psixika, sezgi, idrok, tafakkur, hissiyat, iroda, xotira, diqqat, nutq, faoliyat, emotsiya, iroda, temperament, sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik.

Psixologiya-lotincha «psyux» - ruh, jon, «logos» - fan, ta’limot degan so’zlardan olingan bo’lib, ruh, jon haqidagi fan degan ma’noni anglatadi. Psixologiya faniga beriladigan ta’riflar ham juda xilma-xil bo’lib, shulardan ayrimlarini ko’rib chiqadigan bo’lsak faktlar, ularning qonuniyatlari va psixika mexanizmlari haqidagi fandir. Ko’rinib turiptiki, barcha ta’riflarda ham psixika haqida so’z bormoqda. Xo’sh, psixika nima?

Psixika lotincha psyux so’zidan kelib chiqqan bo’lib, ruh, jon degan ma’noni bildiradi. Psixika sezgi, idrok, tafakkur, hissiyat, iroda, xotira va boshqa shu kabi tushunchalar bilan guruhlarga ajratilib, hammasi birgalikda kishining psixikasi, kishining ichki dunyosi, uning ruhiy hayoti va hokazolar deb ham ataladigan tushunchalarini hosil qiladi. Bundan tashqari biz amaliyotda psixik hodisalar, ruhiy hodisalar degan iboralarga ham juda ko’p duch kelamiz.

Shaxs psixik jarayonlari: Bilish sohasi: diqqat, nutq, faoliyat;

Bilish jarayonlari: sezgi, idrok, xotira, tasavvur, tafakkur;

Emotsional-irodaviy sohasi: emotsiya, iroda;

Individual-psixologik xususiyatlari: temperament, xarakter, qobiliyat.

Bilish sohasi

Diqqat - idrokning u yoki bu ob`ektga ixtiyoriy yo`naltirilishi.

Nutq - bu muayan qoidalar asosida yaratilgan til organi orqali insoniy muloqotni tarixiy shakllangan formasi. Nutq jarayoni bir tomonidan fikrlarni lingvistik vositalar bilan shakllantirilishi, ikkinchi tomonidan esa tilshunoslik konstruksiyalari va ularning tushunchalarini idrok etishni nazarda tutadi.

Faoliyat - bu sub`ektning (tirik mavjudotning) ob`ekt bilan (atrofdagi borliq) faol hamkorlik jarayonidir. Voqelikka nisbatan faol munosabat bildirishning shunday bir shaqlidirki, u orqali kishi bilan uni qurshab turgan olam o’rtasida real bog`lanish hosil qilinadi. Bilish jarayonlari:

Sezgi - odamning real yoki abstrakt ob`ektlarga sub`ektiv munosabatini ifodalovchi hissiy jarayoni. Sezgi deb sezgi a`zolarimizga bevosita ta’sir etib turgan narsa yoki hodisalarning ayrim sifat va xossalaring ongimizda aks ettirilishiga aytamiz.

Idrok - Sezgi a`zolariga bevosita ta’sir etib turgan narsa va hodisalarning kishi ongida butunligicha aks ettirilishi idrok deyiladi. Idrokning sezgidan farqi, narsalarni umumlashgan holda, uning hamma xususiyatlari bilan birgalikda aks ettirilishidir.

Xotira - Individning o’z tajribasini esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi.

Tasavvur (grek. φαντασία - «tasavvur») - individ yoki guruh jamoasi tomonidan realikka to’g’ri kelmaydigan, lekin ularning orzu istaklarini bildiradigan jarayon.

Tafakkur - Tafakkur voqelikni umumlashtirilgan holda, qonuniy bog`lanishlarni so’z va tajriba vositasida aks ettirishdir. Narsa va hodisalar rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash bilan odam, tabiat va kishilik jamiyati taraqqiyotini boshqarish imkoniyatiga ega bo’ladi.

Shaxsnинг hissiy irodaviy sohasi:

Hissiyot (lot. emoveo - hayajonlantiraman) -ob`ektiv dunyodagi mavjud yoki noma’lum bo’lgan vaziyatlarga sub`ektiv baholovchi munosabatni ifoda etadi. Iroda -insonning fikrlash jarayonlari



оргали қарор қабул қилиши, hamda қабул қилинган қарор асосида о‘з xarakatlarini yo`naltirish. Shaxsnинг individual xususiyatlari deganda shaxsnинг bir biridan farq қилишiga imkon beradigan quyidagi xususiyatlari tushuniladi: temperament, xarakter, qobiliyat.

Temperament lotincha temperamentum - narsalarning tegishli nisbati degan so`zdan olingan. Temperament haqida dastlab eramizdan oldingi V asrda yashagan vrach Gippokrat, eramizdan oldingi II asrda yashagan Galen, X asrda yashagan Ibn Sino va boshqalar o‘z qarashlarini bildirganlar. Galen биринчи bo`lib temperamentning kengaytirilgan tasnifini berib, uning 13 turini sanab o`tgan. Keyinroq vatandoshimiz Ibn Sino temperamentni mizoj deb atab, uning issiq va sovuq turini, bu odamning rangi, qonining miqdori, quyuq yoki suyuqligiga bog`liqligini aytgan. Hozirgi kunda temperament oliy nerv tizimi va uning xillari bilan bog`liqligi asos qilib olinib, 4 tipi borligi qabul qilingan. Bu holda temperamentning antik davr klassifikatsiyasiga nomi bilan o`xshash bo`lishi qabul qilingan.

Sangvinik - qon so`zi bilan bog`liq bo`lib, serharakat, kuchli ta`sirlanish, muvozanatsiz bo`lish nazarda tutiladi. harakatchan, muvozanatli tip. Yangi shart sharoitga tez moslashadi, tez ishga kirishib tez soviydi, o`z o`rnini, rolini tez almashtiradi,beg`araz, kek saqlamaydigan tip. («Bir qop yong`oq»).

Xolerik - sariq o`t organizmda ustun miqdorda bo`lishi asos qilib olinib, ta`surotni tez qabul qilib olish, kuchli qo`zg`olish, terisiga sig`maydigan shoshkaloq odam xususiyati hisoblanadi. «Jangovar, jo`shqin, oson va tez ta`sirlanadigan tip». (I. P. Pavlov). Chaqqon, tez harakat qiladi, qattiq va tez gapiradi, o`zini tutib turishi qiyin, bazan xato javob qaytaradi.

Flegmatik - organizmda shilimshiq modda flegma miqdori ko`pligi bilan ifodalanadi. Bu tipdagisi odam ta`surotni bir muncha sekin qabul qiladi, ishga shoshilmay kirishadi, lekin ishni puxta, oxiriga yetkazib bajarishga layoqatli tip. Hissiyotlari sekin paydo bo`ladi, ammo barqaror va davomli bo`ladi. U vazmin va yuvosh, uning jahlini chiqarish qiyin, lekin jahli chiqsa to`xtatish ham qiyin, qasoskor, ginachi.

Melanxolik - qora o`t miqdori bilan bog`liq deb hisoblanadi. Bu tipdagisi odam «og`ir karvon», «tepsa tebranmas», atrofida sodir bo`layotgan hodisalarga va odamlarga loqayd, «dunyonи suv bossa, tupig`iga chiqmaydigan» tip. Antik davr psixologiyasidagi bu turlar keyin yana ko`p marta tadbiq qilinib, yana shu to`rt tip nomi saqlanib qolgan. Reaksiyalari ko`pincha qo`zg`ovchining kuchiga to`g`ri kelmaydi, loqayd, lanj, o`zini tez yo`qotib qo`yadi, biror ishda tashabbuskorlik ko`rsatmaydi. Hissiyotlari juda sekin paydo bo`ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostiasi T.: TDPU 2017 – 264 b.
2. G`oziyev E. Ontogenez psixologiyasi Nazariy- eksperimental tahlil T.: Noshir 2010. – 356 b.
3. Do`stmuhamedova Sh.A., Nishonova Z.T.va boshqalar Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: Fan va texnologiyalar 2013 – 343 b.



## ONA TILIM – MILLATIM KO’ZGUSI

**Mamadaliyeva Gulnoza Odilbekovna**

Namangan viloyat, Norin tumani  
18-maktab ona tili va adabiyoti fani o’qituvchisi

**Annatatsiya.** Til – millatning ma’naviy boyligidir. Til nafaqat muammola vositasi – balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir. Turli xalqlarning tillariga xurmat esa o’z navbatida o’zaro tushunishni, muloqotlarga imkoniyat yaratadi. Tillarni saqlanib qolishi uchun esa bu tillarni qo’llab-quvvatlash zarurdir.

**Kalit so’zlar:** o’zbek tili, muloqot, davlat tili.

Til muloqot vazifasi ham hisoblanadi. Hammamizga ma’lumki, mashhur bo’lgan A.Navoiy bobomizga tegishli “Ko’ngil qulfi maxraning qulfi til va gulfin kalitin so’z bil”. Inson qalbining xazinasi til, bu qalb xazinasining kaliti so’zdir. O’zbek tilining so’zları shu qadar ma’noli, ko’pki bitta ma’noga ega bo’lgan tushunchasi bir nechta so’zlar orqali ifodalash bo’ladi. Masalan, birgina ko’z so’zining bir necha ma’nolari bor. Bilamizki bir tushunchaga tegishli so’z, bir necha so’zlar bilan ifodalansa, ya’ni sinonim so’zları qanchalik ko’p bo’lsa, ayni shu til boy til hisoblanadi. Ko’plab adiblarimiz til haqida ko’plab hikmatli so’zlarni aytganlar va tilni turlicha ta’riflaganlar. Masalan, “Til-millat ko’zgusi”, “Til-ma’naviyat ko’zgusi”, “Til-millatning bebafo boyligi” va shu kabilardir.

1989-yil 21-oktabrda o’zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o’zbek tili maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo’yildi. O’zbek tili haqidagi qonun qabul qilinganidan so’ng barcha davlat hujjatlari o’zbek tilida yuritiladi, gazeta va jurnallar o’zbek tilida chop etila boshlandi. 1993-yil 2-sentabrda “Lotin tiliga asoslangan o’zbek alifbosini tuzish tog’risida”gi qonun qabul qilingandan so’ng, mamlakatimiz har tomonlama rivojlandi va jahon kommunikatsiya tizimidan munosib o’rin egallash muhim ahamiyatga ega bo’ldi. Shu sababli chet ellerda ham o’zbek tiliga qiziquvchilar, uni o’rganuvchilar soni ortib bordi. Dunyoda 5600 dan ortiq tillar mavjud bo’lib, bundan 200 tasigina davlat tili sifatida qabul qilingan. Ularning orasida o’zbek tilining borligi uning naqadar sof, mukammal, purma’no va jozibadorligidan darak beradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, o’zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo’lidagi muhim qadamlaridan biri bo’lgan edi. Istiqlol yillarda mamlakatimizda barcha sohalarda bo’lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o’zgarishlar yuz berdi. O’zbek tilining xalqaro miqyosda obro’si oshdi. “Davlat tili haqida”gi qonun ona tilimizning bor go’zalligi va jozibasini to’la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Olimlar va mutaxassislar tomonidan ilm-fan va turli sohalarga oid ensiklopediya va lug’atlar, darslik va o’quv qo’llanmalari chop etildi. Mumtoz adabiyotimiz namunalari, sakson mingdan ziyod so’z va so’z birikmasini, fan, texnika, sanoat, madaniyat va boshqa sohalarga oid atamalarni, shevalarda qo’llaniladigan so’zлarni o’z ichiga olgan besh jildlik “O’zbek tilining izohli lug’ati” bu borada amalga oshirilgan ishlarning eng muhimlaridandir. Til – millat qiyofasining bir bo’lagi. Dunyodagi barcha xalqlar o’zining milliy rasmiy tiliga ega deb aytolmaymiz. Chunki bu xalqning milliy mustaqilligi bilan bog’liq. Mutaxassislarining so’zlariga qaraganda, bugungi kunda har ikki xافتада bitta til yo’qolib bormoqda. Bu o’z navbatida o’sha tilda so’zlashuvchi xalqlarning yo’qolishini anglatadi. YUNESKO vakillarining so’zlariga qaraganda, qachonlardir odamlar so’zlashadigan tillarning soni 7 mingdan 8 mingtagacha yetgan bo’lsa, bugungi kunda sayyoramizda 6 mingta til mavjud bo’lib, ularning 90 foizi yo’qolib ketish arafasida turibdi. Bu asosan sivilizatsiya tufayli madaniyatidan ayrilayotgan kam sonli millatlarning tillaridir. Bu tillarda so’zlovchi aholining ayrimlari yozuvga ega bo’lsa, ayrimlari bundan bebahradir. Masalan, Afrika tillarida so’zlashuvchi aholining 80 foizi xamon o’z yozuvlariga ega emas. Minglab tillardan ta’lim tizimida foydalanishning imkoniyati yo’q. Internetdan foydalana olmaydigan tillar haqidaku aytmasa ham bo’ladi. Chunki yangi texnologiyalarning rivojlanishi tufayli ayrim xalqlar o’z tillaridan ko’ra zamонавиyl tillardan foydalanishga majbur bo’lmoqda. Bugun Internet tilining 81 foizi ingliz tiliga to’g’ri keladi. To’g’ri, avvallari ham tillar paydo bo’lgan, muammolada bo’lib, ma'lum vaqtan so’ng yo’q bo’lib ketgan. Lekin hozirgidek tillarning jadallik bilan yo’qolishi tarixda kuzatilmagan. Yo’qolib ketish havfida bo’lgan tillarning saqlab qolish yo’lida amalga



oshirilayotgan sa'y-harakatlarning asosiy maqsadi ham madaniyatlar va tillar xilma-xilligini ta'minlashdan iboratdir. Chunki aynan til tufayli xalq va elatlarning madaniyati, urf-odatlari saqlanib qoladi, sayyoramizda yashayotgan xalqlarning o'tmishi va madaniyati hurmat qilinadi. Tilshunoslar yo'qolib ketish arafasida turgan tillarni saqlab qolishning imkoniyatlari hozircha qo'lidan boy berilmaganini aytishadi. Tillarni saqlab qolish uchun esa, BMT ekspertlarining fikricha, bu tillardan ta'lim tizimida keng foydalanishni yo'lga qo'yish kerak. Lingvist olimlarning fikricha, yana 25 yildan so'ng xozir muamolada bo'lgan tillarning o'ntasidan bittasi saqlanib qolar ekan.

Aynan til tufayli insoniyat u yoki bu xalqqa mansubligidan faxrlanib yashaydi. Barcha tillarni tan olish va xurmat qilish tinchlikning birdan bir kafolatidir. Olimlarning fikricha, til yashab qolishi uchun undan kamida bir millon kishi so'zlashishi kerak ekan. Biroq bunday tillar dunyoda atigi 250 tadir. O'zbek tili ham mana shu 250taning ichida ekani quvonarli, albatta.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, tilni sevish, uni ardoqlash, millatni sevish va uni qadrlash bilan teng hisoblanadi. Har qaysi xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, madaniyati uning tilida o'z ifodasini topadi. Til – millat ko'zgusi, deb bejiz aytilmagan. Xalqimizning necha asrlik boy tarixi, ko'hna va serqirra madaniyati o'zbek tili ta'sirida shakllangan. Ulug' shoirimiz Alisher Navoiy shu tilda bebaho asarlar yaratib, dunyoni lol qoldirgan. Bugungi kunda jahoning barcha mamlakatlarida davlatimiz delegatsiyalari tashrifi, yoshlarimiz yutuqlari, sportchilarimiz g'alabalari sharafiga o'zbek tilida madhiyamiz kuylanayotir.

Biz o'z ona-tilimizni asrab-avaylashimiz, uning nufuzini oshirishimiz, go'zal va sofligini avlodlarga meros sifatida qoldirishimiz, dunyoga tanitishda o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. "Til yashasa, millat yashaydi". Agar biz o'z tilimizning ko'rkaligi, boyligini dunyoga tarannum etsak, millatimiz yanada charog'on bo'ladi va birligimiz mustahkam bo'ladi.

**Adabiyotlar:**

1. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti, 2012. – 5-son, 3-16-betlar



## TABIATSHUNOSLIK DARSLARINING TURLARI

Mardonova Mohigul Teshayevna

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani  
4-makab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
(+998919209120)

Annotatsiya: Dars-o'quv ishlarining tashkiliy shakli bo'lib, bir xil yoshdagi o'quvchilar bilan qat'iy jadval va dastur asosida 45 daqiqa davomida o'quvchilar qat'iy tarkibi bilan olib boriladigan mashg'ulotlar dars deb ataladi.

Kalit so'z: Tabiatshunoslik, dars, didaktika, anketa, bilts, komptensiya, zinama-zina

Har bir dars dasturda belgilangan masalalami o'rganishga bag'ishlanadi. Maqsadi va mazmuni jihatidan har xil bo'lgan darslar turlicha sxemada tuzilishi mumkin. Odatda darsni quyidagi tuzilish qismlariga ajratish mumkin:

Tashkiliy qism.

Uy vazifasini tekshirish.

Yangi materialni bayon qilish.

O'quvchilaming mustaqil ishlashlari, yangi bilimlami mustahkamlash, ulaming o'zlashtirilishini tekshirish. Dars materialini umumlashtirish. Uyga vazifa berish. Baholami sharhlash. Tabiatshunoslik darslari qismlarining izchilligi xilma-xil bo'lishi mumkin: bir xil darslarda o'quvchilaming mustaqil ishlari yangi bilimlami bayon qilgandan keyin o'tkaziladi, boshqalarida undan oldin bo'ladi; uy vazifasini tekshirish darsning boshida yoki uning kelgusi bosqichlarida olib borilishi; darsning qismlari almashinibgina qolmasdan, balki takrorlanishi ham mumkin. Chunonchi, yangi materialning bayon qilinishini mustaqil ishlar bilan navbatlashtirib, bir necha qismlarga ajratish mumkin. Ba'zi qismlar dars tuzilishidan tushib qolishi mumkin. Masalan, hamma darslarda ham o'quvchilaming mustaqil ishlari tashkil qilinmaydi. Tabiatshunoslik darslari quyidagi vazifalami bajarishi ko'zda tutiladi. 1. Ta'limiy vazifasi - bu o'quvchilarga muntazam bilim berish o'quv va ko'nikmalar hosil qilish bilan bog'langan. Buning uchun o'qituvchi o'quv materialidan bosh, asosiy tushunchalami tanlaydi, ular asosida anglangan, chuqur bilimlar hosil qiladi.

Tarbiyaviy vazifasi - tabiat qonuniyatlarini o'rganishi asosida bolalarda moddiy dunyoqarashni shakllantirish, o'lkashunoslik, ekologik, mehnat va estetik, tabiatni sevish, uni muhofaza qilish ruhida tarbiyalashdan iborat. 3. Rivojlantimvchi vazifasi - o'quvchilaming aqliy va bilish qobiliyatlarini o'stirish bilan bog'liq holda ulaming shaxsiy sifatlarini rivojlantirishdan iborat. Bunda o'quvchilarning kuzatuvchanlik, diqqati, xotira kuchlarini o'stirish va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. Tafakkur operatsiyalari asosida ish olib boriladi. 4. Rag'batlantimvchi vazifasi u o'quvchilarda bilimga bo'lgan ehtiyoj tabiatni o'rganishga qiziqish uyg'otish, bilish faoliyatini faollashtirishdan iborat. Kursning mazmuni, moddiy baza, o'quv materialining yangi bilimlari, ulaming hayotiy ahamiyati, o'lkashunoslik materiallari o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. 5. Mustaqil ta'lim bemvchi vazifasi bu mustaqil ishslash metodlarini qo'llash yo'li bilan amalgalash oshiriladi-darslik, "kuzatishlar kundaligi." Globus, xarita, jadval va rasmlar bilan mustaqil ishlanadi. Darsning maqsadi va mazmuni har xil bo'lsada, ammo umumiylashtirishdan iborat. Tabiatshunoslik darslarining maqsadi va mazmuni turli xil bo'lsada, turli bosqichlarda tuzilgan darslar amalda keng qo'llaniladi

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. D.Sharipova, D.P.Xodiyeva, M.K.Shirinov “Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi”
2. Internet ma'lumotlari



## O'QUVCHILARNI SINTAKSIS ELEMENTLARI BILAN TANISHTIRISH

Nasrullayeva Zulayxo Qudratullayevna  
Buxoro viloyati G'ijduvon tumani ona tili fani o`qituvchisi  
(+998900814773)

**Annotatsiya:** O'quvchilarga sintaksis haqidagi dastlabki bilimlar 5-sinfda beriladi. 8-sinfda esa sintaksis kengroq tarzda, ya'ni so'z birikmasi, gap va uning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari, uyushgan va ajratilgan bo'laklar, gap bo'lagi bilan aloqaga kirishmaydigan “bo'laklar” kabi mavzular o'rganiladi.

**Kalit so`zlar:** Sintaksis, punktuatsiya, so'z birikmasi, sintaktik tahlil.

8-sinfda “So'z birikmasi” mavzuini o'rganishda hokim so'z va tobe so'zni aniqlash, hokim so'z bilan tobe so'zning birikish turini ko'rsatish (boshqaruv, moslashuv, bitishuv), hokim so'z va tobe so'zni bog'lovchi grammatik vositani (kelishk qo'shimchalari, ko'makchilar va ohang) aniqlash, hokim so'z va tobe so'zni qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligini izohlash (ot+ot, ot+fe'l) kabilarga e'tibor qaratiladi.

Ma'lumki, o'quvchilar so'z birikmasini so'zlar qo'shilmasidan, so'zdan, iboradan, gapdan, tasviriy ifodadan farqlashda qiynaladilar. Shu bois, bularning har biriga (so'z birikmasi va so'zlar qo'shilmasi, so'z birikmasi va so'z, so'z birikmasi va turg'un bog'lama v.h.) alohida alohida to'xtalishga to'g'ri keladi.

So'z birikmasining so'zlar qo'shilmasidan farqini tushuntirish uchun ualrn ni o'zaro qiyoslash usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, “Karimjonning akasi” so'z birikmasini “Karimjon va akasi” so'zlar qo'shilmasi bilan qiyoslash kabi.

So'z birikmalari zanjiri mavzuini o'tishda gap tarkibida bir so'z birikmasidagi hokim so'z boshqa bir so'zga tobelanishi, bir hokim so'z bir necha tobe so'z yoki bitta tobe so'z bir necha hokim so'zga aloqador bo'lishi kabilarga e'tibor qaratilishi lozim.

Masalan, “uch kundan beri shimoldan esgan mayin shamol” birikmasi zanjirida 5 ta so'z birikmasi mavjud.

1) uch kundan beri 2) shimolgan esgan 3) mayin shamol 4) shimoldan esgan mayin shamol  
5) uch kundan beri shimoldan esgan mayin shamol.

O'quvchilar 5-sinfanoq kesim gap markazi ekanligini biladilar. O'quvchilar sodda gap tarkibidagi kesimlik shakliga ega bo'lgan bitta kesimning bitta gap markazi ekanligini, qo'shma gap tarkibida esa bunday markaz ikki va undan ortiq bo'lishini o'rganadilar.

Kesim gap markazi bo'lganligi sababli egadan oldin “Kesim va uning ifodalanishi” mavzusi o'tiladi. Bu mavzuni o'rganishda avvalo o'quvchilar e'tibori kesimning mavqeiga qaratiladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.”Ona tili o`qitish metodikasi” Qosimova. G`ulomova
- 2.Internet ma'lumotlari



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA DOSTONLARNI O'RGAATISH METODIKASI

O'rinnov Baxridin Saparovich

Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani  
74-son maktabning Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Boshlangich sinf o'quvchilarini asosan jamiyatda yashagan xalq ruhi, do'stlik, birodarlik, mardlik, vatan va xalqqa sodiqlik g'oyalari, ota-onalarining izaro ahilligi, ular bilan farzandning o'zaro mehr-muhabbati, qadr-qimmati, insoniy eng yaxshi fazilatlari u ijod etgan maqol, topishmoq, ertak, latifa, lapar, askiya, dostonlar va boshqalar asosida tarbiyalab borishimiz lozim. Ushbu maqoladada boshlang'ich sinf o'quvchilariga doston o'qitish metodikasi haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** o'quvchi, dars, doston”, “xalq og'zaki ijodi, tarix, adabiyot, kurash.

O'zbek xalqi og'zaki ijodi juda uzoq tarixga ega. Og'zaki ijodning qadimdan shakllangan janri dostondir. U eng murakkab, yirik va keng tarqalgan shakllardan hisoblanadi. “Doston” so'zi “qissa”, “hikoya”, “ta'rif”, “maqtov”, “shon-shuhrat”, “sarguzasht” ma'nolarida ishlatiladi. U adabiy atama sifatida yirik hajmli, liro-epik asarlarni anglatadi. Dostonlarda xalqning turmushi, uning kelib chiqishi, boy madaniyati, xalqlar orasidagi munosabatlar ajoyib tarzda berilgan bo'lib, uning tarbiyaviy ahamiyati ham yuqori hisoblanadi.

O'zbek xalqiga xos milliy xususiyatlar, uning milliy madaniyati, ilm-fan, san'at va adabiyot sohasida erishgan yutuqlarida, oilaviy turmush tarzida bola tarbiyasida qo'llangan usul va tadbirlarida nomoyondir.

Yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llangan usul va vositalar, tadbir shakllari, urf-odat va an'analar, tarbiya xaqidagi g'oyalalar – hayotiy tajribalar o'zbek halq pedagogikasida mujassamdir.

Doston janri ilk bor xalq og'zaki ijodida shakllangan bo'lib, keyinchalik badiiy adabiyotga ham kirib kelgan. Hozirda ham ushbu janrda ko'plab asarlar yaratib kelinmoqda. Doston janri voqealar rivojining boyligi, tilining soda ekanligi, tushunishga qiyinchilik tug'dirmasligi va eng muhimi esa tarbiyaviy ahamiyati yuqori bo'laganligi uchun boshlang'ich sinfdan boshlab o'qitish maqsadga muvofiq. Xalq dostonlarining matni nazmiy va nasriy parchalardan iborat bo'lib, mavzusiga ko'ra xilma-xildir. Boshlang'ich sinflarda asosan: qahramonlik dostonlari, jangnomma dostonlar o'rganiladi.

Xalqning qahramonona kurashlari qahramonlik dostonlarining paydo bo'lishiga sabab bo'lган. Masalan: “Alpomish”, “Yodgor” kabi xalq qahramonlik dostonlarida fantaziya va romantik tasvirning kuchli bo'lishiga qaramay, ularning asosini xalq hayoti va kurashi, uning orzu-armonlari tashkil etadi. Xalqqa xos insonparvarlik, vatanparvarlik, qahramonlik, mardlik, mehnatsevarlik, do'stlik va sadoqat kabi oliyanob fazilatlari xalq dostonlaridagi qahramonlar obrazida mujassamlashgan. Doston qahramonlari shunday ta'svirlangan bo'ladiki, bola ushbu qahramonlar obrazlariga havas qiladi va unga o'xshash harakat qiladi. Endigina shakllanayotgan bola ongida o'z o'zidan vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqiga muhabbat hissi shakanadi.

Boshlang'ich sinflarda dostonni o'rganish darsini quyidagicha tashkillashtirishimiz mumkin:

1. Tayyorgarlik ishlari (bunda doston xususiyatlari va qaysi sinfda o'qitilishiga mos ravishda ish turlari tanlanadi).

2. Dostonni o'qituvchining ifodali o'qishi yoki baxshi aytganini eshittirish.

3. Dostonni qismlarga bo'lib o'qish.

4. Doston mazmunini tahlil qilish.

5. Dostonda o'quvchilar tushunishi qiyin bo'lgan so'z va so'z

6. Dostondagi badiiy san'atlar ustida ishslash.

7. Dostonni qismlarga bo'lish va reja tuzish.

8. Dostonni to'liq qayta hikoyalash.

9. Umumlashtiruvchi suhbat.

Boshlang'ich sinf o'qish darsliklarida doston janriga kam o'ren berilgan bo'lib, 3-sinf “O'qish kitobi”da “Alpomish”, “Rustamxon” dostonlaridan parchalar berilgan bo'lsa, 4-sinfda M.Shayxzodaning “Toshkentnoma” dostoni keltirilgan. 3-sinfda o'quvchilarga doston haqida beriladigan ma'lumot „Rustamxon” dostoniga bog'liq holda bayon etiladi. Darsda o'qituvchiga



doston haqida quyidagi ma'lumotlarni beradi: “Doston ham xalq og'zaki ijodining bir turidir. Dostonda xalq hayoti, kurashi va orzu-umidlari aks etadi”. Boshlang'ich sinflarda dostonlardan berilgan parchalarda, asosan, qahramonlarning bolalik davri aks etgan epizodlar keltiriladi. Bunda bolalarni qahramonlikka, Vatanga sadoqatli bo'lishga chorlovchi voqealar tasvirlanadi. 3-sinf darsligidan o'ren olgan “Rustamxon”, “Alpomish” dostonlari xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'lganligi uchun muallif haqida ma'lumot berilmaydi. Faqat bu dostonlar o'rganiladigan darslarda dostonni qo'shiq qilib aytadigan baxshilar haqida ma'lumot berish mumkin.

Dars jarayonida pedagog bola bilan ishslash jarayonida doston qaharamonlarini obrazini shunday mohirlik bilan ta'svirlashi kerakki, bola ushbu tasvirlangan obrazni ongida chiza olishi kerak. Darsning yana ham tushunarli va samarali bo'lishi uchun ko'rgazmali materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Dars yakunida esa o'qituvchi tomidan o'qib tushuntirilgan dastonning tahlili o'tkaziladi. Bu jarayonda o'quvchilar qanday tushunganliklari so'raladi, doston qaharamonlari haqida fikr bidirishlari, asar sujetlari haqida fikr bildirib baxs munozara o'tkaziladi. Bu esa o'quvchilarning nutqini o'stirib dunyoqarashini o'stirishlari uchun imkon beradi.

Dostonlar nafaqat xalq tarixi, balki uning ilmiy, ma'naviy, ma'rifiy qarashlarini ham ifodalashi ma'lum. Shular haqida o'quvchilarga bilim berishda kompyuter texnologiyasidan foydalanish katta samara beradi. Ya'ni bunda folkloriga oid ma'lumotlar faktik asosda havola qilinishi ta'minlanadi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Karima Qosimova va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. T., NOSIR. 2009
2. S.Matchonov va boshq. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. T.: „Yangiyul poligraph service”, 2008.
3. [www.fayllar.org](http://www.fayllar.org)



## PSIXOLOGIYADA SHAXS TUSHUNCHASI

**Pardayev Obidjon Hamza o'g'li**  
 Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani  
 74-maktab Amalyotchi psixolog

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxs tushunchasiga ta'rif berilgan. Shuningdek shaxsning turli munosabatlardagi o'rni, boshqa fenomenlardan farqi keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** shaxs, odam, inson, fan, psixologiya, individ, munosabat, ong.

Shaxs – ong egasi bo'lgan konkret odam. «Shaxs» tushunchasi psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiya o'r ganadigan barcha fenomenlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etiladi. Inson ruhiy olami qonuniyatlari bilan qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi ham shaxsning ijtimoiyligi va aynan jamiyat bilan bo'lgan aloqasi masalasini chetlab o'tolmagan.

Shaxs - ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning subyekti bo'lmish individdir. Shaxsga taaluqli bo'lgan eng muhim tasnif ham uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham obyekt, ham subyekt bo'lishlikdir. Odam insonshunoslik fanlari tomonidan har tomonlama o'r ganilib kelinmoqda. Psixologiyada odam biologik evolyutsiya mahsuli sifatida, jamiyat ishlab chiqarishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida, ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy munosabatlarning subyekti sifatida o'r ganiladi. Odamning boshqa shaxslar bilan, tashqi olam bilan bo'lgan munosabatlari xilma-xil bo'lganligi uchun unga xos bo'lgan psixologik sifatlar va fazilatlar ham nihoyatda xilma-xildir.

Psixologiya fanida inson zotiga xoslik masalasi individ (lotincha individ - ajralmas, alohida zot degan ma'no anglatadi), shaxs, individuallik (yakkaxonlik) tushunchalari orqali aks ettiriladi. Katta yoshdag'i ruhiy sog'lom (esi-hushi joyida) odamlar ham, chaqaloq ham, nutqi yo'q, oddiy malakalarni o'zlashtira olmaydigan aqli zaiflar ham individlar deb ataladi. Biroq bulardan birinchisinigina shaxs deb atash an'ana tusiga kirib qolgan, chunki o'sha zotgina ijtimoiy mavjudot, ijtimoiy munosabatlar mahsuli, ijtimoiy taraqqiyotning faol qatnashchisi bo'la oladi. Individ sifatida yorug' dunyoga kelgan odam ijtimoiy muhit ta'sirida keyinchalik shaxsga aylanadi, shuning uchun bu jarayon ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadir. Ilk bolalik chog'idanoq individ muayyan ijtimoiy munosabatlar tizimi doirasiga tortiladi, bunday shaxslararo munosabatlar tarzi tarixiy shakllangan bo'lib, u yoshligidanoq shu tayyor (ajdodlar yaratgan) ijtimoiy munosabat, muomala, muloqot tizimi bilan tanisha boradi. Ijtimoiy qurshov (oila a'zolari, mahalla axli, jamoatchilik, ishlab chiqarish jamoasi), ijtimoiy guruh ichida (kishilarning og'ushida, ularning qalb to'risida) odamning bundan keyingi rivojlanishi uni shaxs sifatida shakllantiruvchi, uning ongi va irodasining xususiyatlariga mutlaqo bog'liq bo'lmagan har xil xususiyatli munosabatlar majmuasini vujudga keltiradi.

Umumiy psixologiya fanida shaxsning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlari hamda ularning mexanizmlari tadqiq etiladi. Bu borada psixologlar tomonidan shaxsga nisbatan turlicha ta'rif berilgan va uning tuzilishini o'ziga xos tarzda tasavvur qilishgan. Quyida mualliflarning ayrimlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

A.G.Kovalevning fikricha, shaxs - bu ijtimoiy munosabatlarning ham obyekti, ham subyektidir. A.N.Leontyev ushbu masalaga boshqacharoq yondashib, unga shunday ta'rif beradi: shaxs - bu faoliyat subyektidir. K.K.Platonovning talqiniga binoan: jamiyatda o'z rolini anglovchi, ishga layoqatli, yaroqli a'zosi shaxs deyiladi. Bu muammo mohiyatini chuqurroq ochishga harakat qilgan S.L.Rubinshteyn ta'rificha, shaxs bu tashqi ta'sirlar yo'nalishini o'zgartiruvchi ichki shart-sharoitlar majmuasidir.

Psixologiya fanida bir-biriga yaqin, lekin ayniyat bo'lmagan tushunchalar qo'llanilib kelinadi, chunonchi: odam, shaxs, individuallik. Ularning mohiyatini aniqroq izohlab berish uchun har birining psixologik tabiatini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

**Odam:** sut emizuvchilar sinfiga daxldorlik, biologik jonzod ekanligi odamning o'ziga xos xususiyatidir. Tik yurishlik, qo'llarning mehnat faoliyatiga moslashganligi, yuksak taraqqiy etgan miyaga egaligi, sut emizuvchilar tasnifiga kirishi uning o'ziga xos tomonlarini aks ettiradi. Ijtimoiy jonzot sifatida odam ong bilan quollanganligi tufayli borliqni ongli aks ettirish qobiliyatidan



tashqari o‘z qiziqishlari va ehtiyojlariga mutanosib tarzda uni o‘zgartirish imkoniyatiga ham egadir.

**Shaxs:** mehnat tufayli hayvonot olamidan ajralib chiqqan va jamiyatda rivojlanuvchi, til yordami bilan, boshqa kishilar bilan muloqot (muomala)ga kirishuvchi odam shaxsga aylanadi. Ijtimoiy mohiyati shaxsnинг asosiy tavsifi hisoblanadi.

**Individuallik:** Har qaysi inson betakror o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shaxsnинг o‘ziga xos qirralarining mujassamlashuvi individuallikni vujudga keltiradi. Individual shaxsnинг intellektual, emotsiyonal va irodaviy sohalarida namoyon bo‘ladi.

Shaxs strukturasi, ya’ni tuzilishi muammosini bayon, talqin qilishda tayanch va jabha, komponent tushuncha tariqasida yaxlit tuzilishning nisbiy mustaqil qismidan, tahlilning birligi sifatida element tushunchasidan (atamasidan), har qanday kontekstlardan yaxlitlik xususiyatini aks ettirmasa ham ulardan foydalanamiz. Bunday tafovut (farq) shaxs xususiyatlarini yaxlit holda mukammal ochish uchun tarkibiy tizimli va elementli-tizimli darajalarini namoyon etish uchun mutlaqo zarur. Shaxsnинг tuzilishi to‘g‘risidagi muammo o‘zining dolzarbligi bilan fanning tadqiqot doirasidan, predmetidan tashqari chiqadi. Shaxs tuzilishiga oid ilmiy tasavvurlarning yaratilishi, ishlab chiqilishi yaxlit nazariyaning zaruriy sharti hisoblanib, insonning ijtimoiy mohiyati qirralarini ochish imkoniyatiga egadir. Psixologiya fani shaxs strukturasining modelini yaratishga boshqa fanlardan izchilroq kirishadi, uning tabiatini aks ettirish imkoniyatiga erishadi, natijada u psixologiya muammolari majmuasida markaziy o‘rin egalladi. Psixologiya olimlari tomonidan tadqiqot qilinayotgan dolzarb muammolar bilan shaxs tuzilishiga oid masala u yoki bu jabhasi orqali uzviy bog‘liqlikka ega. Bu kontekstda xulq motivatsiyasi, shaxsnинг tipologiyasini ishlab chiqish, shaxsga ta’sir o‘tkazishning samarali yo‘l yo‘riqlarini qidirishni eslatib o‘tishning o‘zi kifoya.

#### Foydalanimgan adabiyotlar

1. Umumiy psixologiya fanidan o‘quv-uslubiy majmua. Buxoro 2021
2. G‘oziev E. «Pedagogik psixologiya asoslari». Toshkent. 1997
3. G‘oziev E. «Psixologiya». Toshkent. «O‘qituvchi». 1994



## TARIX FANINING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARI

**Qodirov Akramjon Abduraximovich,**

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi  
28-umum ta'lif maktabi Tarix fani o'qituvchisi  
tel:943061517

**Annatatsiya.** Tarixiy konsepsiya – bu tarixiy hodisalar va jarayonlarga aniq bir bilish nazariyasi, manbaviy asoslari va o'rganish metodlari nuqtai nazaridan qarashlar va yondashuvlar tizimidir.

**Kalit so'zlar:** konsepsiya, jarayon, tarixiy.

Tarixiy konsepsiya – bu tarixiy hodisalar va jarayonlarga aniq bir bilish nazariyasi, manbaviy asoslari va o'rganish metodlari nuqtainazaridan qarashlar va yondashuvlar tizimidir. Tarixiy konsepsiya fanning predmetini, tarixiy taraqqiyot xususiyatlarini bilish va tushunish, ularni belgilab beruvchi omillarni aniqlab beradi.

Tarixiy konsepsiya tarixiy jarayonning asosiy mohiyatini ochib beradi va tushuntirib beradi. Bilish nazariyasi bilish jarayoniga - ya'ni, bilish tamoyillarini aniqlab beruvchi va metodlarning qo'llanishida asos bo'luvchi fanning metodologiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Nazariya va metodologiya o'rtasidagi farq tarixchilar tomonidan jamiyat taraqqiyoti, shuningdek, alohida tarixiy voqealar va hodisalarning, tarixiy jarayonlarning o'rganish borasida turlicha farqlanuvchi tushunchalarning shakllanishiga olib keladi.

Tarix fani konsepsiyasini bir nechta tushuncha va qarashlarni aks ettiradi:

Birinchidan, tarixiy tadqiqotlarning yetakchi g'oyasi yoki asosiy, bosh mazmuni bo'lib, ular yordamida tadqiqot ob'ektining tanlanishi asoslab beriladi, tushuntirish tizimini shakllantiruvchi farazlar va tarixiy nazariyalarni yuzaga keltiruvchi tushunchalarni dallilar bilan asoslab berish amalga oshiriladi va tadqiq etilishi mo'ljallanayotgan ilmiy masala ilmiy muammo tarzida shakllantiriladi.

Ikkinchidan, tarixiy hodisalarga nisbatan ilmiy qarashlar tizimi va uning predmetini aniqlovchi, tarixiy taraqqiyotning xarakterini tushunish hamda tarixiy jarayonning aosiy mohiyatini aniqlovchi va ochib beruvchi aniq bir tarixiy bilish nazariyasi nuqtai-nazaridan yondashuvlar jarayonlaridir.

Tarixiy bilimlar aniq bir ijtimoiy muhitda shakllanadi. Tarixiy bilimlar murakkab va ko'pqirrali jarayon bo'lib, u doimiy rivojlanishda (harakatda) bo'ladi, bu jarayonda turli nazariyalar va farazlar o'zgarib turadi. Nazariyalar va qarashlarning o'zgarib turishi fanning taraqqiy etib borishi bilan bog'liq bo'lib, har bir nazariya alohida jarayonlarning tushuntirib berilishi bilan bog'liqdir. Konsepsiyalarning o'zgarib turishi esa fan taraqqiyotining asosiy shartlaridan biridir.

U yoki bu tarixiy konsepsiya baho berishda va ayni bir tarixchining tarix fanidagi o'rnini aniqlashda birinchi darajali talab shundan iboratki, ayni konsepsiya avvalgilari bilan taqqoslaganda zamonaviy tarixshunoslik nuqtai-nazaridan qanday yangilikni bera olishi mumkinligiga anqlik kiritish zarur bo'ladi. Qolaversa, har qanday konsepsiya baho berishda eng avvalo unga amal qilgan ayni bir tarixchinining tadqiqot jarayonlarining boshlanishidan boshlab to o'z ilmiy xulosalarini bayon qilishigacha amalga oshirgan tadqiqot jarayonlarini chuqur tushunish lozim bo'ladi.

Zamonaviy tarix fani avvalgi barcha davrlardagi tarix fanlaridan shunisi bilan farq qiladiki, hozirgi kundagi tarix fani yangi axborot muhitida taraqqiy etmoqda, bu axborot muhitidan tarix fani o'zi uchun yangi metodlarni o'zlashtirgan holda ayni vaqtida o'zi ham uning shakllanishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Hozirgi kunda u yoki bu mavzuda tarix tadqiqotlarini amalga oshirish emas, balki ilmiy ijodiy jamolar tomonidan yaratilgan, yirik va ishonchli ma'lumotlar bazalari bilan tekshirish imkoniyati mavjud bo'lgan ishonarli, haqiqiy, tom ma'nodagi ilmiy tarixni yaratish birinchi o'ringa ko'tarilgan.

Jahon miqyosida tarixiy haqiqatga erishish uchun bugungi kungacha mavjud bo'lgan turli gneseologik paradigmalardan foydalangan holda turli yo'lar bilan borilmoqda. Tarixiy tadqiqotlardagi postmodernizm, ijtimoiy antropologiya, gender yondashuvlariga o'rniga global tarix chiqmoqda, xattoki unga qarshi antiglobalistlar ham shakllanib va o'z e'tirozlarini bayon qilib ham ulgurgan. Zamonaviy tarixda alohida tarixiy jarayonlar tarixiga va ayni vaqtida mikrotarixga bo'lgan qiziqish kuchayib bormoqda.



Mutaxassislar tomonidan bildirilgan fikrlarga ko‘ra bugungi kun tarixchi olimlari oldida quyidagi bir qator muhim vazifalar turganligini ko‘rsatib o‘tish mumkin, eng avvalo, tarixiy bilish nazariyasi borasidagi eng so‘nggi zamonaviy tajribalarni umumlashtirish, ikkinchidan, jahonning zamonaviy tarixiy ilmiy tafakkuri taraqqiyotini ko‘rsatib beruvchi axborot-tahliliy materiallarni muntazam ravishda e’lon qilib borish, shuningdek, tarix fani metodologiyasi muammolari, tarixshunoslikning zamonaviy ilmiy-nazariy muammolari, tarixiy bilishning zamonaviy tizimlari, yo‘nalishlari va ilmiy maktablari kabi masalalar yuzasidan maxsus yoki umumiyoq o‘quv kurslari tashkil qilish, fanlararo yondashuv masalalari va zamonaviy tarix fanining dolzarb muammolarini ta’lim amaliyotiga imkon qadar kengroq joriy etish, qolaversa, tarix fani metodologiyasi ilmiy muammolari borasidagi ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish va kadrlar tayyorlash masalalarini alohida ta’kidlab o‘tish mumkin.

Zamonaviy tarix ta’limida fanlararo yondashuv va insonpvarvarlik tushunchalari asosida tarixiy jarayonlar va hodisalarning ilmiy tahlili professionallik, fuqarolik burchi va vatanparvarlik tarbiyasiga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyat kasb etmoqda. Tarix fanini o‘qitishda tarixshunoslik va tarix fani metodologiyasi fanlari bilan bir qatorda manbashunoslik fani ham asosiy fanlardan biri sanaladi, shunday ekan har bir yetkazib berilayotgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va ishonchliligi uchun tarixchining ma’naviy mas’uliyati ham bu borada alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar:**

1. Карпов С.П. Историческая наука и историческое образование в современном информационном пространстве: тупики и перспективы. [www.hist.msu.ru](http://www.hist.msu.ru)
2. Бориснёв С.В. Современные проблемы теории и методологии исторического исследования // [cyberleninka.ru](http://cyberleninka.ru)



## BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ONA TILI DARSLARINI TASHKIL ETISH

Saidakbarova Dilnoza Mutalibovna

Oltariq tumani 20-IDUM  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi  
e-mail:saidakbarova@gmail.com

**Annotatsiya:** maqolada boshlang‘ich ta’limda ona tili darslarini tashkil etish va o‘quvchilarda ona tili haqida tasavvur uyg‘otish, boshlang‘ich nazariy ma’lumotlar berish hamda o‘rgatish yoritigan.

**Kalit so‘zlar:** ona tili, boshlang‘ich ta’lim, grammatik ma’no, fonetika, til.

Ona tili darslarini tashkil etishga ilmiy- metodik yondashuv, dars samaradorligini oshiruvchi interfaol metodlardan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar berish.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarning tilni o‘zlashtirish jarayonini tekshirish shuni ko‘rsatadiki, tilga ilmiy qarash asoslarini shakllantirish uning muhim bog‘lanishlarini bilishga ham yordam beradi. Xususan, o‘quvchilarning so‘zning tovush tomoni bilan uning leksik ma’nosи, so‘zning morfemik tarkibi bilan leksik ma’nosи, so‘zning grammatik ma’nosи bilan uning ma’lum so‘z turkumiga tegishliligi o‘rtasidagi bog‘lanish kabilarni bilib olishi shu maqsadga xizmat qiladi. Bu bog‘lanish tilning fonetik, leksik, so‘z yasalishi va grammatik tomonlarining bir-biriga ta’sir qilishini xarakterlaydigan umumiy bog‘lanishlarning xususiy ko‘rinishi hisoblanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, o‘quvchilarning xarakterli bog‘lanishlarni tushuntirishlari tilni egallash nuqtai nazaridangina emas, balki dunyoqarashlarini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Tildan bilim berishda o‘quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish muhimdir. O‘qituvchi nazariy xarakterdagи umumlashtirish zarur bo‘lgan daliliy materiallarni yig‘ish bosqichida ham, berilgan bilimlarni amaliyatga tatbiq etish uchun ham bolalarning hayotiy tajribasiga, nutqqa oid amaliyatiga tayanadi. Tilga oid bilimni o‘rganish natijasida o‘quvchilar nutq faoliyatining sifati o‘zgaradi, ongliligi ortadi. Tilni o‘rganishni hayot bilan bog‘lash dunyoning moddiyligini tushunishga asos yaratadi. Bu bilan bir paytda ona tili darslarining asosiy vazifalaridan biri bo‘lmish o‘quvchilarda to‘g‘ri kuzatish va o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma shaklda aniq bayon etish ko‘nikmasini o‘stirish masalasi hal qilinadi. Bunda o‘qituvchidan o‘quvchilarda dialektik fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishga alohida e’tibor berish talab etiladi.

Dialektik tafakkur keng ma’noda hodisalarning boshqa hodisalar va jarayonlarga bog‘liqligini hisobga olib, ularni har tomonlama mavjud belgilari yig‘indisi bilan rivojlanishda ko‘rish ko‘nikmasini ta’riflaydi. Tafakkurning bunday sifati o‘quvchilarda asta-sekin shakllana boradi va o‘z navbatida, ular kuzatish jarayonida dalillarni topish, ularni tahlil qilish va o‘rganiladigan hodisalarning ayrim tomonlari o‘zaro bog‘liqligini aniqlash, taqqoslash va umumlashtirish ko‘nikmasini egallab boradilar. Keyingi yillarda o‘quvchilarning o‘quv faoliyati tobora izlanish xarakteriga ega bo‘lmoqda. Tilni o‘rganishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ayrim qoida va aniqliklarni yodlab olish emas, balki atrofdagi hayotni kuzatish asosida o‘quvchilarning o‘zları «topgan» yoki adabiy manbalardan tayyor olingan til materialini maqsadga muvofiq analiz va sintez qilish yetakchi hisoblanadi. O‘rganiladigan grammatik va so‘z yasalishiga oid, leksik tushunchalarning mavjud belgilarini aniqlash jarayonida faol qatnashish, bilib olingan dalillarni o‘xshash va farqli tomondan qiyoslash, shuningdek, o‘rganilgan nazariy bilimlarni har xil nutqiy faoliyatga ijodiy tatbiq etish - bularning barchasi o‘quvchilarda dialektik fikrlash ko‘nikmasini o‘stirish uchun zamin va shart-sharoit yaratadi. Bunda muhim omillardan biri o‘quvchilarning aqliy faoliyatini o‘qituvchi tomonidan maqsadga muvofiq boshqarish, ularda orfografik, grammatik yoki leksik-uslubiy vazifalarni hal qilishning umumiy metodlarini shakllantirish hisoblanadi.

O‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish vazifalaridan biri ularda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirishdir. Bu vazifani hal qilishda maqsadga muvofiq ishslashning yetakchi sharti - o‘quvchini shaxs sifatida muvaffaqiyatli kamol toptirishdir. Quyida ko‘rsatilgan omillar tilni o‘rgatish bilan bog‘liq holda o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirish usulini belgilaydi:

1. *Tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyati uning aloqa (komunikativ) vazifasini ifodalashdan iboratdir. Mabitabda, shu jumladan, boshlang‘ich sinflarda tilni o‘rgatishning*



*yetaqchi yo‘nalishi o‘quvchilar tomonidan tilning aloqa vazifasini bajarishini tushunishlariga erishish hisoblanadi.*

2. *Til bilan tafakkur uzviy bog‘liq bo‘lib, tafakkur so‘z vositasida yuzaga chiqadi. Til tafakkurning mahsuli hisoblanib, ongdan tashqarida o‘zicha yashamaydi.*

3. *Til va tafakkur atrofimizni o‘rab olgan moddiy borliqqa nisbatan ikkilamchidir. Tafakkur tashqi dunyoning tushunchadagi ifodasi hisoblanadi. So‘z tushunchaning shartli nomini o‘zida aks ettiradi. Duniyoda yo‘q narsa ongda ham, tilda ham bo‘lmaydi.*

Bu holat o‘quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish asosini tashkil etadi va didaktik tamoyillardan birini, ya’ni til atrofni o‘rab olgan muhitni, voqelikni kuzatish jarayonida faol bilish faoliyatini vaziyatida o‘rganilishini belgilaydi. Bunday yondashish dunyoqarashning asosiy masalalardan biriga, ya’ni nima birlamchi: tabiat (materiya) mi yoki ongmi degan savolga javob tayyorlash hisoblanadi; materiya - birlamchi, ong – ikkilamchi degan tushunchadan o‘quvchilarning xabardor bo‘lishiga yordam beradi.

Maktabda tilning barcha tomonlari (talaffuzi, fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, so‘z yasalishi) ni o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish ona tilini o‘rgatishdagi etakchi tamoyil bo‘lib, uni amalga oshirish o‘quvchilarning tilni murakkab, rivojlanuvchan, o‘zaro bog‘langan muhim tomonlarga ega bo‘lgan hodisa sifatida anglab etishlari uchun ilmiy asos yaratadi. Tilning mohiyatini bunday idrok etish hodisalarining rivojlanuvchanligi va o‘zaro bog‘langan qismlardan tuzilishini tushunishga zamin hozirlaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. U.Masharipova va b.q. Ona tili “1-sinf o‘qituvchilari uchun ilg‘or pedagogik va axborot kommunikasiya texnologiyalarini amaliyatga joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma T-2017.
2. G‘afforova T va b.q “Ona tili” darsligi 1-sinf T-2019.



## ТАБИАТШУНОСЛИК БО'YICHA DARSDAN VA SINFDAN TASHQARI ISHLAR

**Sharapova Zuxro Sharifovna**  
 Buxoro viloyati G'ijduvon tumani  
 4-makab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
 (+998916460876)

**Annotatsiya:** Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlar bolalarda dars jarayonida olingan bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish, oydinlashtirish, tabiat va o'quv predmetiga yanada kuchliroq qiziqish uyg'otish o'quvchilaming mustaqilligini tarbiyalash va niyoyat kelajakda mazkur sohaning yetuk namoyondalari bo'lib yetishishiga tamoman yo'naltiradigan imkoniyat kuchiga egadir.

**Kalit so'zlar:** ekskursiya, labaratoriya, dars, amaliyat, vosita, didaktika, namuna Sinfdan tashqari ishlaming mazmuni. Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlarga tabiatni o'rganish va muhofaza qilish, o'simliklami o'stirish, hayvonlami parvarish qilish bilan bog'liq bo'lgan xilma-xil mashg'ulotlar kiradi.

Bu mashg'ulotlar darslami takrorlamasligi va faqat darslarda olingan bilimlarga asoslanishi kerak. Bolalar e'tiborini tabiat, shuningdek maktab jonli burchagi va o'quvtajriba maydonchasiidagi kuzatishlarga qaratmoq; ko'cha va maktabni ko'kalamzorlashtirish bo'yicha, qushlami muhofaza qilish va qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurash bo'yicha ijtimoiy-foydali mehnatni tashkil qilmoq lozim. Tabiatdagi amaliy ishlar kuzatishlar va tegishli kitoblar o'qish bilan birga olib borilishi kerak. Sinfdan tashqari ishning jadal borishi uchun uni tashkil etish shakllarini puxta o'ylab chiqish zarur. Sinfdan tashqari ishlami uch guruhga borish mumkin. Birinchi guruhga ko'plab o'quvchilami qamrab oluvchi ommaviy ishlar, tadbirlar, ikkinchi guruhga - guruh doirasida olib boriladigan to'garak ishlari va uchinchi guruhga tabiatni o'rganishga qiziqqan yakka tartibdagi o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlar kiradi. Ommaviy mashg'ulotlar kinofilmlami namoyish qilishni, tabiatga ekskursiya va poxodlar o'tkazishni, ertaliklar, o'quvchilar ishlarining ko'rgazmasini tashkil qilishni, shuningdek kompaniyalar (hosil kuni, bog' haftaligini, daraxtlar o'tkazish haftaligi, qushlar kuni va boshqalar) o'tkazishni nazarda tutadi. Guruh mashg'ulotlarga yosh geografiyachilar, yosh tabiatshunoslari, klub ishlari kiradi. Yakka tartibdagi mashg'ulotlarga devoriy gazetalar, albomlar chiqarishni; jonli tabiat burchagi va maktab oldi o'quv-tajriba uchastkasidagi, tabiatdagi ishlami; darsdan tashqari o'qish va axborot burchagi uchun tabiatshunoslik mazmunidagi materiallar tanlashning tabiat to'g'risidagi "Yosh tabiatshunos" jumallariga, bolalar ilmiy ommabop kitoblariga e'tibor berishni o'z ichiga oladi. Sinfdan tashqari ishlaming barcha turlari bir-birlarini to'ldirishi va takomillashtirishi lozim. Individual topshiriq yoki o'qituvchining tavsiyasini bajarishda muajryan qiziqish uyg'onishi mumkin. Bir necha o'quvchilardagi o'xshash qiziqishlami aniqlab, o'qituvchi ulami to'garak yoki klubga birlashtiradi. Bunday birlashmalar ommaviy sinfdan tashqari tadbirlaming tashkiliy markazi bo'lib qolishi mumkin, ulami muvaffaqiyatli o'tishi uchun turli tayyorgarlik ishlari va ko'p sonli ishtirokchilar kerak. Sinfdan tashqari ishlar tashkiliy shakli, mazmuni, o'tkazish metodlari jihatidan xilma-xil bo'lishi kerak. Uning mazmuni qandaydir doimiy bo'lmaydi. U o'quvchilar tarkibi, yoshi, qiziqishi va ehtiyojiga, mifik tabiiy o'rami, yil fasli, xona va jihozlarga bog'liq.

Xulosa: Tabiatshunoslik-tabiatdagi turli hodisa va jarayonlami obyektiv bilimlaming rivojlanishini va uni insonning ta'sir kuchi bilan tizimga soladi. Tabiatshunoslikda kuzatish, tajriba o'tkazish yordamida fanlarni o'rganadi, uning natijasi dunyoning tabiiy-ilmiy ko'rinishini ilmiy bilimlami bir tizimga soladi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. D.Sharipova, D.P.Xodiyeva, M.K.Shirinov □Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi□
2. Internet ma'lumotlari.



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA QOG'oz VA KARTON BILAN ISHLASH METODIKASI

Sharipova Nargiza Boqiyevna

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani  
4-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
(+998914441951)

**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar eng avvalo faqat mehnat darsi mashg'ulotlaridagina emas, balki boshqa darslarda ham to'qnash ke81 ladigan materiallar bilan ham tanishadilar.

**Kalit so'zlar:** Bambuk, ish qog'oz, gazeta, sunpay, mixxat, shummer

Boshlang'ich sinflardagi mehnat ta'limi dastur materiallarini tahlil qilar ekanmiz, barcha sinflardagi ish turlaridan biri “Qog'oz va karton bilan ishlash” ekanligini ko'ramiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari qog'oz va kartonga ishlov berishning quyidagi usullarni o'rGANADILAR:

1. Qog'ozni turi, navi, rangi, o'lchamiga ko'ra tanlash.
2. Qog'ozdan maketlar yasaganda qog'ozga ishlov berishning eng oddiy usullari sifatida qog'ozni o'rtasidan buklab va to'rburchak qilib buklash (uzunasiga va ko'ndalangiga).
3. Ingichka qog'oz parchalarini to'g'rilash, bukilgan joylarini ikki tomonidan buklash.
4. 45-90 gradus burchak qilib buklash.
5. Qog'ozni buklab belgilangan chiziq bo'yicha qaychi bilan qirqish, asbobni ushslash, xavfsizlik choralarini qo'llash.
6. Qog'ozni andoza bo'yicha belgilash. Qalam bilan chiziq bo'yicha oddiy belgilash.
7. Qaychi bilan kvadratlar, turli burchaklar, uchburchaklar, doiralar qirqish
8. Qog'ozning yelim surtiladigan qismlarini oldindan ko'chirib buyum detallarini bir-biriga yopishtirish.
9. Turli o'yinchoqlarni kvadrat asos va to'g'ri burchak asosidan bukib yasash.
10. Daftar, kitoblarni muqovalash.
11. Qog'ozni buklash va turli shakllar yasash.

O'quvchilar ishlov berilayotgan materiallarning xususiyatlarini hisobga olib, ish usullaridan ongli foydalanishlari, mehnat jarayonida fan asoslarini o'rGANISH vaqtida egallagan bilimlarini qo'llashlari lozim.

Birinchi sinfda o'quvchilar eng avvalo faqat mehnat darsi mashg'ulotlaridagina emas, balki boshqa darslarda ham to'qnash keladigan materiallar bilan tanishadilar. Bu barcha o'quv anjomlari: daftarlар, kitoblar, o'quv qo'llanmalari, bosiladigan qog'oz turlari – yoziladigan, muqova qilinadigan, bosma, rasm solinadigan, kitob va ro'znama qog'ozlaridir. Ta'lim jarayonida o'quvchilar turli qog'ozlarning asosiy jismoniy xususiyatlari, rangi, qalinligi, zichligi, siyohni singdirish xususiyati, sathining xarakteri – silliq, g'adir-budirligi bilan tanishadilar.

O'quvchilar mashg'ulotlarda qog'oz varaqlarini buklaydilar va to'g'rilaydilar, ularni qismlarga bo'lib yirtadilar va qirqadilar, bo'yaydilar. Shu bilan birga qog'ozni buklash yo'l bilan turli xil narsalarning shaklini yasaydilar.

“Qog'oz va karton bilan ishlash” o'quvchilarni garmonik rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, rangli qog'oz bian ishlash ijodni rivojlantirshga yordam beradi, fantaziyanı boyitadi, kuzatuvchanlik, diqqat va tasavvurni faollashtiradi, irodani tarbiyalaydi, qo'l mehnati, chamalash va rangni sezishni o'stiradi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.X.Sanaqulov D.Xodiyeva M.Satbayeva “MEHNAT VA UNI O'QITISH METODIKASI”
2. Internet ma'lumotlari



## MEHNAT TA'LIMINING SHAKL VA METODLARI

**Shodiyeva Dilrabo SHukurovna**  
Buxoro viloyati G'ijduvon tumani  
4-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
(+998919809778)

**Annotatsiya:** Yoshlarning fan-texnika rivojida faol ishtirok etishlari faqat ta'lim mazmunini emas, balki o'qitish jarayonining usuli va tashkil etilishini, o'qitishga qiziqishini, ijodiy qobiliyatini, egallagan bilimlarini amalda qo'llay bilishni rivojlantirish maqsadlarida yanada takomillashtirishni ham talab qiladi.

**Kalit so'zlar:** Metod, innovatsiya, integratsiya, ta'lim, tarbiya, ma'lumot

Mehnat ta'limiga o'rgatishning ahamiyati mehnat malakalarini egallah imkoniyatini berish bilan cheklanmaydi, balki bu malakalar hamma uchun kerakligini e'tirof qilish kerak. Ko'pgina ilmiy kengashlarda qatnashuvchi kishilar, agar turmush ishlarini bajarishni: ovqat pishirish, kiyim yamash, ozodalikni saqlash va shu kabilarni bilmaganlarida, shunchalik muvaffaqiyatga erishmagan bo'lardilar.

Mehnat ta'limiga o'rgatishni ham zamonaviy pedagogika ishlarini to'g'ri tashkil etish va uning usullariga qo'yadigan umumiyl talablariga muvofiq tarzda amalga oshirish kerak. O'qitish metodlari – bu o'qituvchi va o'quvchilarning usullari bo'lib, bular yordamida o'qituvchi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni egallahlariga erishadi. O'qituvchi o'z tajribasida o'qitishning xilma-xil usullaridan foydalanishi mumkin. O'qituvchining intilishi, xatti-harakati darsda o'quvchilarning diqqat-e'tiborlari susaymasligiga, fikrlarning jamlangan bo'lishiga, ularning chambarchasliklariga yo'llangan bo'lishi kerak. O'qituvchi darsning har bir daqiqasini qadrlab, o'quvchilarni ham shunga o'rgatishi kerak. Har bir o'qituvchiga o'z uslubi, o'z usulining o'ziga xosligiga ega bo'lish huquqi berilgan. Biroq shuni aytish mumkinki, bularning barchasiga mustahkam bilim, bir qarashda hammaga ravshan bo'lgan haqiqatlarni egallaab olganlaridagina erishish mumkin.

Hayotini o'qituvchilik mehnatiga baxsh etmoqchi bo'lgan o'qituvchilar o'z faoliyatini mana shu hammaga ma'lum haqiqatni o'zlashtirishdan boshlashlari kerak. Ular darslarda suhbat, gapirib berish, amaliy mashg'ulotlar kabilardan foydalanib o'zlashtirganini tekshirish, yangi mavzuni tushuntirish va o'tilganini mustahkamlashni eng boshidan o'rganishlari lozim. Faqat barchaga ma'lum haqiqatlar o'zlashtirgandan keyingina va sinfning imkoniyatlarini nazarda tutib, yangisini qo'llash mumkin.

Mehnat ta'limi bilimlarini egallah, o'zlashtirish, amalda qo'llash va o'quvchilarni rivojlantirish faol jarayonining muvaffaqiyati asosan o'qituvchining bilimi hamda ishga ijodiy yondashishiga bog'liq.

Mehnat ta'limini amaliy mehnat faoliyati bilan birlashtirish va o'quvchilarning ilmiy bilimlarni chuqur o'zlashtirishini ta'minlashda ta'limning turli usullaridan foydalaniladi. Nazariy materialni tushuntirish chog'ida o'qituvchi o'quvchilarning bilimlari va tajribasiga suyanadi. O'quvchilar tomonidan bajariladigan barcha mehnatga oid harakatlar nazariy bilimlarni bilishga tayanadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.X.Sanaqulov D.Xodiyeva M.Satbayeva “MEHNAT VA UNI O'QITISH METODIKASI”
2. Internet ma'lumotlari



---

**PLANNING AND ORGANIZATION OF CLASSES RELATED TO THE  
DEVELOPMENT OF SPEECH OF CHILDREN OF SMALL, MEDIUM PRESCHOOL  
AGE**

**Nasirova Aydin Sotiboldiyevna**  
Qurghontepa pedagogical college  
Special science teacher  
Tel:+998905444946

**Annotation:** This article will talk about the planning and organization of classes related to the development of speech of young and middle-aged children in preschool educational organizations.

**Keywords:** Psycholinguistic literature, semi-linguistics, communicative orientation, social situation, emotional experiences, ermak games, diction, emotional expressiv

Supporting concepts: psycholinguistic literature, semi-linguistics, social expectation, communicative orientation, social situation, emotional experiences, ermak games, diction, emotional expression, empathy Methodological issues of growing speech of young children. Communication of a child with adults and peers is an important condition for full-fledged social development. It follows from this that it is necessary to educate in the child such sensations as striving for communication, responding to the demand of partners in communication, flexibility to behave socially and politeness. Adults (parents, educators) should understand that in a number of cases, the experience of negative communication does not motivate the child to any action, but "mirrors" the child from showing himself in the world of human relations, protective mechanisms-a "wall" between himself and the human world, which can lead to the appearance of "not seeing" the surrounding world: the child does not answer questions. Rude interference in the world of a child who actively refuses communication leads to negative consequences and aggression. At the peak of negative experiences, aggression towards oneself is born. In order for the child to be psychologically comfortable in the family and in a preschool educational institution, to create an emotionally comfortable environment between his adults and peers, to receive joy and pleasure from interaction with them, the following is necessary:

to reveal to the child the world of emotions and experiences of adults and peers in different emotional states; creating conditions for the child to communicate in a confident state with other children; develop a desire to see and understand the joyful, sad, calm, emotional state of the moment;

How to behave and how to make feelings of anger, fear, anger social to develop manifestation in a form that is acceptable in terms (not to push, beat another child, not to pull the toy out of hand, etc.).k.);

to educate the skill of the seer to use the methods of communication adopted in society: to greet and say goodbye to an open face, politely express his requests and suggestions; to express gratitude for helping, for making a guest, for giving a toy;

to respond politely to the request of a comrade; to calmly listen to the answer;

to express his dissatisfaction in a tone that When pedagogical work is properly organized, a preschool child will have the following indicators of social development by the age of five:

understands human relationships, feels and realizes the good and bad attitudes of those around him; notices changes in the emotional state of his parents, his peer;

expresses attention, sympathy;

"I want!"able to suspend his direct desire for the situation. Experiences in the nature of empathy (empathy) and emotional expression (expression of joy, sadness and other states) become regulators of child behavior and communication;

children can enter into stable play associations, use emotional expressive colloquial and non-verbal means to express joy, pleasure, sadness and other circumstances in communication and joint activities.

The development of speech of children from 3 to 5 years old should have an emotional tone. In this case, it is necessary to widely use exhibitionism, game methods and didactic games. Development of speech communication. Many colloquial in children communication and skills are formed outside of training. In preschool education, children's adults (educators, medical



nurses, assistant educators, etc.) with which his communication takes place in different types of activities. In the process of Labor - household, manual and agricultural labor, the vocabulary of children is enriched, identified and activated. During the game activity, the educator forms an independent speech activity in them. In children, the knowledge gained in vocabulary, training is strengthened and activated. The participation of an educator in games contributes to the enrichment of vocabulary, the upbringing of a culture of speech communication. In the process of organizing games on construction, the educator is guided by the definition of words that are difficult for children (quality, quantity, volume and spatial location of things, etc.) clarifies, activates a large group. Textual, mobile musical Games, staging games help to form the expressiveness of a child's speech, practice the right pace, breathing, Good Diction. In the process of many games, children are introduced to artistic texts, remembered and begin to apply them independently. Analysis of the training: the educator gave children knowledge about the new type of butterfly "Velvet butterfly" according to the program. In training, a comparison method was used (that is, an ordinary butterfly was compared with a velvet butterfly). The training began in a question-and-answer manner. Ended with the Giving of new knowledge. Planning and organization of training on the development of speech of middle-aged children. In the education of children of preschool age, tevarak is a great place to get acquainted with the environment and work on the development of speech. These works are carried out not only in training, but also in the daily life of children, in labor activities and in play activities. Support the personality and activity of the child's own relatives, neighboring peers, facilitate the establishment of their dialogical speech in joint games;

teaching the differentiated use of various means of communication, namely-word, facial expression (gesture), taking into account a certain situation; support children's interest in telling fairy tales and small stories;

it consists of introducing a child with the terms “sound”, “word”, “sentence”. The middle group provides for excellent work on deepening the child's knowledge of things (objects). The active Dictionary of children of this group becomes rich at the expense of words denoting the names, parts of things, their qualities and characteristics (color, shape, length, appearance, etc.), as well as space and time.

In their speeches, children are taught to use generalizing words, namely clothes, shoes, furniture, dishes, vegetables, fruits, flowers, birds, animals, etc.; to Group familiar items and classify them (dishes, tea pots, food floats, kitchen utensils, shoes, winter and summer clothes). Children 4-5 years old are introduced to some phenomena of the life of society, are introduced to the labor of people, their professions, weapons of Labor and their peculiarities, and as a result, words are introduced into their dictionaries that indicate the features of labor activity, their relationship between workers (working people). In the middle group, the upbringing of interest and love for his hometown, his village will continue. In their speech, words denoting the names of public buildings are activated: mail, school, store, cinema-theater, etc., are activated, and dictionaries are enriched at the expense of words denoting labor activities carried out on the improvement of cities and villages (a new bridge is being built, a city park has been established). In addition to mastering the vocabulary content of the child's language, he begins to master its grammatical construction. And the task of parents is to take care of the proper development of the speech of their child. The educator must try to say some kind of good word about each child, to bolster them, before engaging the children in the next task. For example: "I entrust the feeding of rabbits to Alisher. His hands are just sahiy!""Odina-caring", "Madina is very sociable", "will – hardworking" and similar assessments of children create in them self-confidence, the ability to assess their behavior. Children try to respond with their good answers and excellent behavior, to be sincere towards their peers. The development of speech of preschool children is a complex psychological process, which does not consist only in imitating the speech heard by the child. This process is associated with the development of communication activities in children and, above all, with the presence of a need for communication. Speech development is necessary not only to introduce the child to the environment, but also to develop him in a general spiritual way. The purpose of raising a child's speech in the family is to occupy oral speech in accordance with the norms of the literary language, to ensure access to active speech. In the formation and development of Child speech, it is better for the parent to set the following tasks for himself: raising the etiquette of speaking in the child of a student; formation, enrichment, strengthening and activation of vocabulary wealth; grammatical formulation and development of speech in the



word; improving fluent speech; introduction to fiction; prepare to learn the gift of the moment.

**Additional literature**

1. S.Gozieva, D.Ochilova, L.Dolimova. National Art Book. - Tashkent, "Teacher", 1994.-B.222.
2. M.R.Kadyrova, F.R.Kadyrova. Theory and methodology for the development of children's speech. - Tashkent, 2006.
3. Zhurakulov R., Tokayeva Sh. Methodological recommendations for growing children's speech in small groups of kindergartens.- Samarkand, 1991.

E-learning

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)



## THE USAGE INFORMATION COMMUNICATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE (ENGLISH LANGUAGE)

Toshpulatova Rukhsora Botirjon kizi

teacher of the ENGLISH language,  
26th school Turakurgan district, Namangan region,  
Tel: +998976220291

**Abstract.** ICTs can expand access to language programmers and improve the quality of teaching and learning in general. The World Wide Web expands the classroom context and provides access to current, up-to-date materials from the country or countries of the target language, offering learners and teachers a plethora of materials in different modes, bringing the foreign culture and language to life and making it more tangible.

**Keywords:** ICT, teaching, learning.

This methodological complex sets out to give a general overview of the availability of technology for foreign language (FL) teaching and learning today, to outline the various uses of information and communication technologies (ICTs) in this sector, to provide a few, selected studies of best practice, illustrating meaningful deployment of these resources, and to point towards future developments and possible implementation in the coming decade. It highlights the importance and the role of the teacher in ICT-ich foreign language learning environment and shows how such environments can contribute to cross-cultural understanding.

ICTs can expand access to language programmers and improve the quality of teaching and learning in general. The World Wide Web expands the classroom context and provides access to current, up-to-date materials from the country or countries of the target language, offering learners and teachers a plethora of materials in different modes, bringing the foreign culture and language to life and making it more tangible.

In environments where teaching staff are not able to fulfill all requirements of the curriculum with regard to the skills and knowledge required, ready-made, high quality audio-visual and other programmers may provide sufficient backup for them to offer appropriate courses without having to engage in time consuming and expensive (re)training. Andreas Lund's article points out that there is a strong tradition of Computer Assisted Language Learning (CALL) addressing materials, software packages and technologies that aid and promote cognitive development and linguistic performance, but emphasizes that we must pay more attention to how technologies are embedded in larger social and cultural practices for them to be truly effective. The professional isolation of teachers may well be relegated to the history books, if they learn how to use the potential for networking, which ICTs offer.

The affordances and deployment of multiple media are well illustrated in the contribution by Dan E.Davidson and Maria D.Lekic, where they not only show how different exercises can offer practice in basic skills and how learners may use new information to solve problems, but also how they can bring the Russian-speaking world into the classroom.

The positive affordances of ICTs in FLT/FLL have been recognized in most educational contexts; the technology and materials are available, but ongoing training is essential if we are to reap the benefits of the rich learning environment, which ICTs offer for foreign language learning. As training and education become increasingly time and place independent, new models must be found to integrate the new media into a principled approach to teaching and learning, which enriches and supplements traditional materials and well-tried delivery systems in existing institutions. The different contributions in this study show some of the potential of the new technologies for language learning and language teaching. They also warn us of being over-optimistic. Above all, they recommend careful analysis of specific needs for different educational contexts before deploying the media, and advocate conscientious planning at all stages of the introduction and implementation of new programs and programmers.

The authors of the above-mentioned report list the following benefits of using multimedia environments for teaching and learning:

“Multimedia can:

- enhance learning in different locations and institutions of diverse quality;



- present opportunities to pupils working at different rates and levels; provide (tirelessly, without holding up other pupils) repetition when repetition is warranted to reinforce skills and learning; and
  - compensate, in the short term, for high pupil populations and limited numbers of trained and experienced teachers – in combination with robust teacher development initiatives and improvements in teachers' working conditions.

Updates to content ware can ensure that teachers and pupils encounter and have the chance to work with current and authentic sources. Such encounters tie learning to the most important events of our time and underscore the general idea that knowledge itself is not fixed and finalized, that there is a universe of discoveries and a library of analyses that can be available to pupils”. There is little to add to this in general terms, but it is worthwhile considering the particular advantages afforded to FLT/FLL by the new media. Technological resources currently deployed in language learning. Audio devices: The most popular and most widely used devices appropriated by modern language teachers remain the CD player and the audiocassette recorder. More recently, the Web has served as an additional source of authentic listening materials thanks to the possibility of fast downloads using MP3 software. Video: The use of moving images linked to sound provides learners with exposure to all-important elements of spoken communication gestures, proxemics, pronunciation, intonation, all embedded in natural, cultural contexts. And devices like DVD players, videocassettes, web sources, the laserdisc and video cameras readily supply these. Thanks to modern technology, scenes can be located, isolated and replayed at random and there is an abundance of literature suggesting how to exploit film/video sequences meaningfully. Different forms of visual support can now be offered (e.g. optional sub - titles in the mother tongue or target language to assist understanding and facilitate access to the language).

**Literature:**

1. Berardo S. —The use of authentic materials in the teaching of reading|. The Reading Matrix, 6(2), 2006. 60-69.



## ҚАДИМГИ ХОРАЗМНИНГ ТОЗАБОҒЁБ ВА ҚАДИМГИ КЎЧМАНЧИЛАРНИНГ ИЛК ТЕМИР ДАВРИ МОДДИЙ МАДАНИЯТИ

Исмаилов Улуғбек Ўқтамбай ўғли

Тошкент шаҳар Занги-ота тумани  
иҳтиносослаштирилган мактаби маслаҳатчиси  
+998919871778 U-ismailov@bk.ru

**Калим сўзлар:** Сарматлар, Тагискен мозор-кўргони, Инкар

**Аннотация:** Уибу мақолада Хоразмда Темир даврига оид ёдгорликларни саналаштириши ва дастлабки туркумларга ажратилишига дойр тадқиқотлар, Хоразмнинг Тозабоғёб маданиятини яратган чорвадор қабилалар қисман қадимги сув ҳавзаларининг пастқам ва захкаи қисмларида ибтидоий дехқончилик билан ҳам шугулланганликларини кўрсатади

Хоразмнинг Қадимги қишлоқларини ўрганишда Бозорқалъя харобаси муҳимдир. Қадиги Хоразм қишлоқларида иморатлар тифиз қурилган. Айниқса бу даврда уй қўргонлар пайдо бўлади. Бу даврга оид Дингелжи уй-кўргони тўлиқ қазиб очилган. Ўрта Осиёning қадимий тарихий маданий вилоятларидан бири бўлган ўлка Амударёning қуи оқимида жойлашган Хоразм вилояти, Қорақолғағистон автаном республикаси ва Туркманистон Республикасининг Тошховуз вилоятлари худудлари мос келади. Бу ўлка қадимдан мустақил сиёsat юргизиб, юнонлар давлати таркиби кирмаган. Фақат эллин маданиятининг айрим аломатлари Ўрта Осиёning жанубий вилоятлари орқали кириб келганлигини кўриш мумкин. Хитой манбаларида келтирилган маълумотлардаги Кангуйлар давлатининг кичик мулкларидан бири бўлган Юеган кўпчилик тадқиқотчи олимлар томонидан Хоразм худуди билан қиёсланади.

Қадимги даврлардан бошлаб Амударёдан бош олган анхорлар атрофида ҳаёт шаклланиб, аҳоли манзилгоҳлари тараққий этган. Археологик жиҳатдан бу ердаги манзилгоҳларнинг шаҳар шаклидаги йирик ва қишлоқлардан иборат кичик шаклидаги икки тури мавжуд бўлганлиги аниқланган. Ўлкада дастлабки шаҳарлар мил. ав. VI асрдан бошлаб тараққий этганлигини Кўзалиқир ёдгорлиги мисолида гувоҳ бўлиш мумкин. Бу шаҳар аҳамонийлар даврида барпо қилинib, жанубий худудлар шаҳарлар қурилиш анъанаси асосида барпо қилинган. Кейинги асрда Қалъалигир ўрнида йирик шаҳар шаклланади.

Хоразмликларнинг асосий хўжалиги дехқончилик бўлган. Дехқончилик Амударё ва Ақчадарё чиқарилган анхор сувлари билан сугорилган. Арпа буғдой, тариқ экилган. Сопол идишлари Ўрта Осиёning жанубий худудларига ўхшаш, сўнги даврга оид сопол идишлари тайёрланиши ва шаклига кўра фарқ қиласди.

Чорвачилик билан шугулланган кўчманчи қабилалар Авестода турлар, юон тарихчиларининг асарларида скифлар ва массагетлар аҳамонийлар даври ёзувларида эса улар саклар номи билан келтирилган.

Сакларнинг мозор-кўргонларидан от анжомлари учрайди. Геродотнинг маълумотларига кўра сакларнинг хўжалигига йилқишилик асосий ўрин тутган.

Тагискен мозор кўргони. Бу мозор тўрт бурчак ва халқасимон кўргон шаклда. Улар илк ва сўнги даврга оид икки гуруҳ қабрлардан иборат. Бугунги гуруҳ қабрлар (мил. ав. IX-VIII асрлар) хомғиштдан қурилган бўлиб, кўринишидан қабила қабила оқсоқолига тегишли бўлган. Мархум олтин ва бронздан ишланган зеб-зийнат буюмлари, бронза пайконлари, кўлда ва кулолчилик чархида қилинган сопол идишлари билан бирга қўшилган. Сўнги даврга қилинган сопол идишлари билан бирга қўшилган. Сўнги даврга (мил. ав. VII-V асрлар) оид иккинчи гуруҳ қабрларда ҳам кўпгина топилмалар учрайди. Уларнинг ичидаги сарматларникуига ўхшаш қуроллар, от анжомлари, йиртқич ҳайвон шаклидаги топилмалар мавжуд. Сарматлар билан яқин алоқада бўлганлигидан далолат беради. Тагискен мозор-кўргони сакларга тегишли бўлган.

Сирдарёning қуи оқимида қадимги ирмоғи Инкар дарё бўйида Уйгарак қабристони топилган ёдгорлик халқа шаклида. Кичик мозор-кўргонлардаги оддий қабрларда бронздан ясалган ўқ учлари, сополдан ясалган идишлар учрайди. Катта мозор-кўргонлардаги сак уруғ ва қабила бошликларининг қабрларида курол -яроғ анжомлари зеб-зийнат буюмлар топилган.



Томди ва Аличур мозор-қўрғонлари, (VI-IV асрлар) шарқий Помирдаги Аличур, Томди мозор қўрғонларидан темирдан ясалган ҳарбий куроллар: қиличлар, ҳарбий болталар, ханжарлар, бронзадан ясалган ўқлар топилган. Ўқлар баргсимон, икки ёки уч қиррали. Бу даврда ўклар бронзадан ташқари темирдан ҳам ясалган. Бронзадан зеб-зийнат буюмлари ҳамда думалоқ тагли сопол идишлари ҳам мавжуд. Сакларнинг от анжомлари ва жанговар куроллари скифларнига ўхшаш бронзадан ясалган санъат буюмларида ҳам катта ўхшашлик бор. Улар бир-бирлари билан доимий маданий алоқада бўлганлар.

Кўчманчиларнинг уйлари ертўла ва чайласимон шаклда бўлган. улар чорва изидан доимо кўчиб юрганликлари туфайли доимий ўтрок ҳаёт улар учун муҳим роль ўйнамаган. Кўчманчи сак қабилаларининг мозор қўрғонларидаги моддий топилмаларга кўра уларга мулкий тенгсизлик мавжуд бўлган. Лекин уларда чорва қачон синфи жамият пайдо бўлганлиги ноаниқ. Олимларнинг фикрига кўра, мил. ав. VII-VI асрларда кўчманчилар орасида ҳарбий-сиёсий қабила уюшмалари мавжуд бўлган.

Хоразмда Темир даврига оид ёдгорликларни саналаштириш ва дастлабки туркумларга ажратилишига дойр тадқиқотлар С.П. Толстов, А.И. Тереножкин ва Я. Фуломовлар томонидан амалга оширилган. Ўзбекистон ҳудудида Темир даври ёдгорликлари мил. ав. 8—6-а. ларга мансуб. Улар Хоразм, Сурхондарё, Қашқадарё, Самарқанд, Бухоро, Тошкент вилоятларида ва Фарғона водийсида ўрганилган; Кўзалиқир, Қалъалиқир ва Дингилжа сингари қад. қалъа ва қишлоқ, шаҳар ҳаробалари, Тагискен ва Уйгарак қабристонқўрғонлари, Бўқантов қоятош суратлари текширилган. Темир даврида қад. Хоразм ҳудудларида дастлабки йирик суғориш иншоотлари вужудга келган.

Тадқиқотлар қадимги Хоразмнинг Тозабоғёб маданиятини яратган чорвадор қабилалар қисман қадимги сув ҳавзаларининг пастқам ва захкаш қисмларида ибтидоий деҳқончилик билан ҳам шуғулланганликларини кўрсатади. Тозабоғёб маданиятига хос бўлган ярим ертўла турар жойлар, қўлда ясалган ва турли геометрик нақшлар билан безатилган сопол идишлар Қозоғистон ва Сибирнинг чўл зоналаридаги сопол буюмларга ўхшайди. Шуларга асосланиб, С.П. Толстов тозабоғёбликларни Андронова қабилаларининг авлодлари деб ҳисоблаган. Археологик манбаларда бу давларга оид ёдгорликлардан икки зона аҳолиси ўртасида кескин тўқнашувлар содир бўлганлигига гувоҳлик берувчи маълумотлар учрамаган.

Тозабоғёб маданиятига хос бўлган хусусиятлар Зарафшон дарёси этакларида яшаган чорвадор қабилалар ўртасида ҳам мавжудлиги аниқланди. Куйи Зарафшон уруғ жамоалари яшаган ярим ертўла ва чайлалар, улар ясаган сопол идишларнинг шакли ва нақшлари, ишлов бериш ва пишириш технологияси тозабоғёбликларнидан деярли фарқ қилмайди. Бундай ўхшашликлар, ҳар иккала жамоанинг ўзаро яқин иқтисодий, маданий ва этник алоқада бўлганликларидан далолат беради.

### Адабиётлар:

1. Авдусин Д.А. Основы археологии. М. 1989.
2. Беленинский А.М. Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. Л. 1973.
3. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкенского оазиса. Т. 1982.
